

## PRESS-RELIZ

### **“El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi test sinovlari o‘tkazildi**

***Bugun, 3-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil 2-ochiq stipendiya tanlovi doirasida test sinovlari o‘tkazildi.***

Barcha jarayonlar ochiqlik, shaffoflik, tenglik va inklyuzivlik tamoyillariga asosan tashkil etilgan.

Ikkinchi ochiq stipendiya tanlovi doirasida **12 – 26 noyabr** kunlari hujjatlarni qabul qilish faqatgina ONE ID milliy raqamli identifikatsiya tizimi bilan integratsiya qilingan onlayn platforma orqali amalga oshirildi.

Hujjatlarni qabul qilish davrida platformada **6000 dan** ortiq foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tdi, bu esa jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg‘onganini ko‘rsatadi.

Hujjatlar topshirganlarning **59% bakalavr, 34% magistratura va 7% doktorantura** ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha dunyoning Top-300 talik universitetlaridan qabul xatlari olgan.

Nomzodlar **21 ta davlatdagi** universitetlardan qabul xatlarini olgan. Top-5 talik davlatlar qatorida — **Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Italiya va Janubiy Koreya.**

2-ochiq stipendiya tanlovi uchun **277 ta** kvota ajratilgan bo‘lib, ular quyidagicha taqsimlangan: **105 — bakalavriat, 122 — magistratura, 50 — doktorantura.**

Tanlov komissiyasi tomonidan dastlabki saralashdan muvaffaqiyatli o‘tgan **480 nafardan ziyod** nomzodning navbatdagi bosqichda ishtirok etishiga ruxsat berildi.

Test sinovlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkazildi. Testlar nomzodlarning intellektual salohiyatini, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini, psixologik barqarorligini baholashga qaratilgan.

Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga test sinovlarida **oflayn** (agar O‘zbekiston hududida bo‘lsa) va **onlayn** (agar chet elda bo‘lsa) shakllarida ishtirok etish imkoniyati taqdim etildi. Bundan tashqari, test topshirish nuqtalari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ham tashkil etildi. Bu nomzodlarga bevosita o‘z hududlarida sinovdan o‘tish orqali vaqt va mablag‘larini tejash imkonini berdi.

Shuningdek, **148 nafar** nomzod 1-ochiq stipendiya tanlovi doirasida test sinovlaridan ozod etildi. Tanlov nizomiga muvofiq, tanlovning birinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan hamda belgilangan muddatda o‘zining

akademik salohiyatini tasdiqlovchi amaldagi **xalqaro sertifikatlarni** (SAT, GRE, GMAT, A-Level) taqdim etgan nomzodlar test sinovlaridan ozod etiladi. Ular **keyingi bosqich — suhbatda** ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdilar.

*Eslatib o'tamiz, "El-yurt umidi" jamg'armasi 2025-yil 1-ochiq stipendiya tanlovi natijasiga ko'ra, **173 nafar** nomzod "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «El-yurt umidi» stipendiyasi sovrindori» deb e'tirof etildi. Ularning 70 foizi jahonning TOP – 100 ro'yxatidagi universitetlarga kirgan yoshlardir. Bu stipendiatlarning sifat jihatidan yangi tarkibi. Qat'iyat bilan mehnat qilib, o'z ustida ishlab, dunyoning eng yaxshi universitetlari — **Kembrij, Pensilvaniya, Seul milliy universiteti, Nyu-York, London, Gonkong, Dyuk** universitetlari kabi nufuzli oliy o'quv yurtlariga kirishga muvaffaq bo'lganlar qo'llab-quvvatladi.*

**"El-yurt umidi" jamg'armasi**

**Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmati**

## ПРЕСС-РЕЛИЗ

---

### **Прошли тестовые испытания в рамках второго открытого конкурса на соискание стипендий фонда «Эл-юрт умиди»**

Сегодня, 3 декабря прошли тестовые испытания в рамках второго открытого конкурса на соискание стипендий Фонда «Эл-юрт умиди» по подготовке перспективных кадров при Президенте Республики Узбекистан.

Все процессы были организованы на основе принципов открытости, прозрачности, равенства и инклюзивности.

В рамках второго открытого конкурса с 12 по 26 ноября осуществлялся прием документов исключительно через онлайн-платформу, интегрированную с национальной системой цифровой идентификации **ONE ID**. Это обеспечивает автоматическую верификацию данных и исключая субъективный фактор на начальных этапах, а также дает возможность большему количеству кандидатов подать заявки, не приезжая в столицу. При этом не только из Узбекистана, но и любой другой страны мира.

За время приёма документов на платформе **зарегистрировалось более 6 000 пользователей**, что демонстрирует высокий общественный интерес.

**60%** подавших документы получили письма о зачислении в университеты из Топ-300 мировых вузов по направлению бакалавриата, **40%** — магистратуры и докторантуры.

Кандидаты получили письма о зачислении от университетов 21 страны. В пятерку лидирующих стран входят **Великобритания, США, Австралия, Италия и Южная Корея**.

Для второго открытого конкурса выделено **277 квот**, распределённых следующим образом: **105** — бакалавриат, **122** — магистратура, **50** — докторантура.

Конкурсная комиссия к участию в следующем этапе допустила более **480 кандидатов**, которые успешно прошли предварительный отбор.

Тестовые испытания проведены Агентством по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан. Тесты ориентированы на оценку интеллектуального потенциала, аналитического и критического мышления, психологической устойчивости.

В целях повышения доступности кандидаты получили возможность сдачи тестов в **офлайн** (если находятся в Узбекистане) и **онлайн-форматах** (если находятся за рубежом). Кроме того, пункты для сдачи тестов были организованы не только в Ташкенте, но и в Республике

Каракалпакстан и областях. Это позволило кандидатам сэкономить время и средства, пройдя испытания непосредственно в своих регионах.

Вместе с тем, **148 кандидатов** были освобождены от участия в тестах — они своевременно предоставили актуальные **международные сертификаты** (SAT, GRE, GMAT, A-Level), подтверждающие их академические способности. Эти участники получили право участия в **следующем этапе — собеседовании**.

Напомним, по итогам первого открытого стипендиального конкурса 2025 года **173 кандидата** были признаны лауреатами стипендии Президента Республики Узбекистан «Эл-юрт умиди». Примечательно, что **70% победителей** были зачислены в университеты, входящие в **ТОП–100 мировых рейтингов**. Получившие стипендию молодые люди поступили в такие ведущие университеты мира, как **Кембридж, Пенсильвания, Сеульский национальный университет, Нью-Йоркский университет, Гонконгский университет, Лондонский университет, Университет Дьюка** и другие.

Это отражает качественно новый уровень подготовки участников и демонстрирует эффективность меритократического подхода, закреплённого реформами.

**Служба по связям с общественностью и информации  
Фонда «Эл-юрт умиди»**